MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR.

Rustamova Malika Ne'matovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha ta'limni muvofilashtirish bo'limi yetakchi mutahassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni chuqur tahlil qilingan. Bolaning nutqiy rivojlanishi uning ijtimoiylashuvi, tafakkuri va muloqot ko'nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim-tarbiyaning erta bosqichidanoq nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash va ularni tizimli qo'llash zarur. Maqolada logoritmik mashqlar, musiqiy va ritmik faoliyatlar, o'yin texnologiyalari, multimediaviy vositalar yordamida bolalar nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, pedagogning kommunikativ kompetensiyasi va metodik mahorati bu jarayonda qanday rol o'ynashi ham ko'rsatib o'tilgan. Maqolada hozirgi kunda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida ularning nutqini o'stirishning yangicha samarali vosita va usullarining ahamiyati va afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar nutqi, nutqiy rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, logoritmik mashqlar, multimedia, muloqot kompetensiyasi. Psixolingvistik adabiyotlar, kommunikativ yo'naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya.

Аннотация: В статье глубоко анализируется роль инновационных подходов, интерактивных методов и современных педагогических технологий в процессе развития речи детей дошкольного возраста. Речевое развитие ребенка имеет решающее значение в формировании его социализации, мышления и коммуникативных навыков. Поэтому необходимо правильно выбирать методические подходы, направленные на развитие речевой деятельности с ранних этапов обучения и воспитания и систематически применять их. В статье научно обоснованы эффективные способы развития речи детей с использованием логоритмических упражнений, музыкально-ритмической деятельности, игровых технологий, мультимедийных средств. Также показано, какую роль в этом процессе играют коммуникативная компетентность и методическое мастерство педагога. В статье подчеркивается значение и преимущества новых эффективных средств и методов развития речи детей в процессе воспитания детей в дошкольных образовательных организациях и подготовки их к школьному обучению.

Ключевые слова: дошкольное образование, речь детей, развитие речи, инновационные технологии, интерактивные методы, логоритмические

ISSN 3030-3907

упражнения, мультимедиа, коммуникативная компетентность. Психолингвистическая литература, коммуникативная направленность, социальная ситуация, эмоциональные переживания, дикция, эмоциональная экспрессия, эмпатия.

Abstract: This article deeply analyzes the role of innovative approaches, interactive methods and modern pedagogical technologies in the process of developing the speech of preschool children. The child's speech development is of decisive importance in the formation of his socialization, thinking and communication skills. Therefore, it is necessary to correctly select methodological approaches aimed at developing speech activity from the early stages of education and upbringing and to systematically apply them. The article scientifically highlights effective ways to develop children's speech using logorhythmic exercises, musical and rhythmic activities, game technologies, multimedia tools. It also shows what role the communicative competence and methodological skills of the teacher play in this process. The article highlights the importance and advantages of new effective tools and methods for developing children's speech in the process of raising children in preschool educational organizations and preparing them for school education.

Keywords: preschool education, children's speech, speech development, innovative technologies, interactive methods, logorhythmic exercises, multimedia, communication competence. Psycholinguistic literature, communicative orientation, social situation, emotional experiences, diction, emotional expression, empathy.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi globallashuv sharoitida maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bola shaxsining har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashdir. Ayniqsa, nutqiy rivojlanish bolaning kognitiv, ijtimoiy va emotsional shakllanishida markaziy o‘rinni egallaydi. Bola muloqotga kirishish, fikrini ifoda etish, so‘z boyligini kengaytirish orqali dunyoni anglaydi va o‘z nuqtayi nazarini shakllantira oladi. Shu bois nutqni rivojlantirish nafaqat lingvistik ko‘nikma, balki shaxsiy rivojlanishning poydevori sifatida qaraladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig‘ilish o‘tkazildi, tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda.Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish,

ISSN 3030-3907

mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ularda maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihatlari belgilab berildi.

Xususan, yangi tuzilgan Maktabgacha ta’lim vazirligi oldiga shu soha bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim tizimining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini Prezidentimizning bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolaning fikrlash darajasi o‘rtasidagi farq xususidagi fikrlaridan ham bilish mumkin. Darhaqiqat, bugun maktabgacha ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalardan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimiz ta’lim sohasida yangi tizimni yaratish va butun ta’lim tizimida sifat o‘zgarishiga erishish, ta’limning uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko`rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o‘stirish fanining o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo`lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo`lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar tilda o‘z aksini topadi. Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o‘z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni

ISSN 3030-3907

nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda nutq o‘stirish metodikasi fanining o`qitilishi, nutq o‘stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o‘stirish vazifalarini to‘g‘ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda. Respublikamiz mustaqilligi o‘zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o‘stirish ularga ona tilini amaliy o`rganish demakdir.

Maktabgacha ta'limda bolalar og‘zaki nutqini o‘stirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o‘rgatishdir. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so‘z boyligiga ega bo‘lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko`rganini gapirib berish, suratlarga qarab mazmun bo`yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so‘zlar yordamida hikoya tuzishga o‘rgatiladi. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to‘g‘ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to‘g‘ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so‘zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo‘lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi. Bu vazifalarni bajarishda nutq o‘stirish metodikasi o‘zining usulolohik asosi bo`lgan pedagogika fani yutuqlariga, g‘oyaviy-nazariy asosi bo`lgan milliy g‘oya va milliy mafko`ramiz tamoyillariga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslanadi.

1. Nutqiy rivojlanishning psixologik-pedagogik asoslari

Nutq rivojlanishi — bu bolaning idrok, tafakkur, xotira, e’tibor, emotsional holat va muloqot madaniyatining uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayonidir. Bolaning nutqiy ko‘nikmalari odatda erta bolalik davrida shakllanadi va bu jarayon ko‘proq o‘yin faoliyati, musiqiy mashg‘ulotlar va kattalar bilan jonli muloqot orqali amalga oshadi.

2. Innovatsion yondashuvlarning o‘rni va afzalliklari

An’anaviy metodlar ko‘pincha tayyor bilimlarni yetkazishga asoslangan bo‘lsa, innovatsion yondashuvlar bola shaxsini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va muloqotga kirishishga yo‘naltiriladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining nutq rivojiga qo‘shgan hissasi bola faol ishtirokini kuchaytiradi, lug‘at boyligini tabiiy tarzda kengaytiradi, muloqot qilishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi va nutqiy muhitni tabiiylashtiradi.

ISSN 3030-3907

3. Interfaol metodlar orqali nutqni rivojlantirish

Interfaol metodlar — bola faol ishtirok etadigan, nutqiy muloqot jarayonida yangi ko‘nikmalarni egallashga imkon beradigan usullardir. Masalan: So‘z zanjiri, rolli o‘yinlar, rasm asosida hikoya tuzish, savol-javob aylanishi va boshqalar.

4. Musiqiy-logoritmik mashqlar va ritmik faoliyat

Musiqa va ritmik mashqlar bolaning nutqiy nafasini, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishini, intonatsiya va ritmni sezish qobiliyatini kuchaytiradi. Logoritmik mashqlar nutqiy markazlarni faollashtiradi, ayniqsa tovush buzilishlari yoki nutqiy kechikishlari bo‘lgan bolalarda samarali bo‘ladi.

5. Multimedia va AKT vositalaridan foydalanish

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) bolalarning nutqiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Rang-barang rasmlar, videolar, audio matnlar va interfaol o‘yinlar bolalarda idrok qilishni kuchaytiradi, ko‘rgazmali obrazlar orqali so‘z boyligini mustahkamlaydi.

6. Pedagogning kommunikativ kompetensiyasi va metodik yondashuvi

Nutqiy rivojlanishda tarbiyachi shaxsiy rolining ahamiyati beqiyosdir. U bolaning nutqiy faolligini rag‘batlantiruvchi ijobiy muhit yaratadi, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, mos metodlarni tanlaydi.

Nutqiy muloqotni rivojlantirishda bolalardagi ko‘plab nutqiy *muloqot va ko‘nikmalar* mashg’ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha talimda bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro‘y beradi.Mehnat jarayonida - xo‘jalik-maishiy, qo‘l va qishloq xo‘jaligi mehnatida bolalarning lug’ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.O‘yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug’at, mashg’ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O‘yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug’atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.Qurilishga oid o‘yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo‘lgan so‘zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.Matnli, harakatchan musiqiy o‘yinlar, sahnalashtirish o‘yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to‘g’ri sur’at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko‘pgina o‘yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo‘llay boshlaydilar.

Didaktik o‘yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug’at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o‘yinlar nutqiy mahorat va ko‘nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so‘zni o‘zgartirish, hikoya to‘qish va h.q.) qo‘llaniladi. Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni

ISSN 3030-3907

rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To‘g’ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya’ni agarda pedagog, ayniqsa, kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo‘llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug’atdan foydalanishni o‘rgatsa bolalarning lug’ati boyiydi. Agarda pedagog o‘z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og’zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she’rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo‘ladi. Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.Bolalar kitoblari she’riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg’ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so‘z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go‘zalligini tushunishga yordam beradi. Maktabgacha ta’limda nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so‘zdan tashqari tasviriy san’at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmati shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o‘z navbatida tilni o‘zlashtirish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko‘tarinkilik holati, g’ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta’sir ko‘rsatadi. Suratlar, amaliy san’at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko‘p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar. Bolalar kun bo‘yi mashg’ulotlarda, o‘yinlarda, xo‘jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o‘z pedagoglari bilan muloqotda bo‘ladilar. O‘z-o‘zidan maktabgacha ta’limda nutqiy muhitni rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog’liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish - bu faqat lingvistik jarayon emas, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishining ajralmas qismidir. Innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, musiqiy-logoritmik mashqlar va multimedia vositalarini uyg‘un qo‘llash orqali bolalarda mustaqil muloqotga kirishish, ravon nutq tuzish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, lug‘at boyligini kengaytirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlari bilan bog’liqlikda mashg’ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir. Katta va tayyorlov guruhlaridagi mashg’ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarkib toptirib boriladi.

ISSN 3030-3907

Bolalarda kuzatuvchanlik, mas'uliyat hissi takomillashtirib boriladi, ularda aqliy mehnat qilish malakasi va xohish-istagi tarbiyalanadi. Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning faol harakatlanishi bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolaning yoshi, imkoniyatini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, mashg'ulotning vaqti, kun tartibidagi o'rni, dasturning har bir bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi «Bolajon» tanyach dasturida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR

1. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
2. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998
3. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Maktabgacha ta'lim davlat standarti". Toshkent, 2021.
5. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Rivojlantiruvchi o'yin texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2020.
7. Logoritmika bo'yicha amaliy qo'llanmalar.
8. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar bo'yicha xalqaro konferensiya materiallari, 2022.
9. Zamonaviy maktabgacha ta'limda multimedia texnologiyalari tadqiqotlari. Toshkent, 2023.
10. O'zbekiston va xorijiy olimlar nutq rivojlantirish metodikasi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.

ISSN 3030-3907